


Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Respublikada 51,1 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,6 mingtaga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 35,9 mingta (12,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 321,6 mingtani tashkil etgan.


Korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,9 % savdo, 17,5 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr holatiga jamidagi ulushi	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
O'zbekiston Respublikasi	337593	321651	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15963	15484	4,7	4,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	28843	27400	8,5	8,5
Buxoro	18972	17974	5,6	5,6
Jizzax	14923	14130	4,4	4,4
Qashqadaryo	21438	20782	6,4	6,5
Navoiy	11217	11097	3,3	3,5
Namangan	22267	21152	6,6	6,6
Samarqand	26018	24782	7,7	7,7
Surxondaryo	16093	15284	4,8	4,8
Sirdaryo	11084	10289	3,3	3,2
Toshkent	35021	30645	10,4	9,5
Farg'ona	29327	28922	8,7	9,0
Xorazm	15772	14815	4,7	4,6
Toshkent sh.	70655	68895	20,9	21,3

2018 yil yanvar-noyabr oylarida 51123 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 32,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahri (11655 ta), Toshkent (4973 ta), Samarqand (4451 ta) va Farg'ona (4046 ta)

viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (1428 ta), Navoiy (1913 ta) hamda Xorazm (2133 ta) viloyatlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rilganda, eng ko'pi savdoda (10735 ta), sanoatda (10442 ta), qurilishda (5920 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (5282 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1106 ta), axborot va aloqada (1160 ta) hamda tashish va saqlashda (1946 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 dekabr holatiga			2017 yil 1 dekabr holatiga			2018 yil 1 dekabr holatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Savdo	7712	116,0	25,6	7402	96,0	19,2	10735	145,0	21,0
Sanoat	6137	111,3	20,3	9600	156,4	24,9	10442	108,8	20,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3088	138,8	10,2	4936	159,8	12,8	5282	107,0	10,3
Qurilish	2884	107,1	9,6	3603	124,9	9,4	5920	164,3	11,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2639	116,7	8,8	3216	121,9	8,4	3639	113,2	7,1
Tashish va saqlash	1529	126,5	5,1	1711	111,9	4,4	1946	113,7	3,8
Axborot va aloqa	875	116,5	2,9	944	107,9	2,5	1160	122,9	2,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	515	110,0	1,7	797	154,8	2,1	1106	138,8	2,2
Boshqa turlari	4780	109,8	15,8	6279	131,4	16,3	10893	173,5	21,3


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini

2018 yil 1 dekabr holatiga 263,3 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 72,4 mingta, oilaviy korxonalar – 15,3 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 168,6 mingta, va boshqalar 7,0 mingtani tashkil etadi.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 7371 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1863 taga yoki 33,8 % ga o'sgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3923 tasi qo'shma korxonalar, 3448 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahar (4643 ta yoki jamiidagi ulushi 63,0 %), Toshkent viloyati (825 ta yoki 11,2 %) va Samarqand viloyatlari (391 ta yoki 5,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xorazm viloyati (70 ta yoki 0,9 %), Qashqadaryo viloyati (78 ta yoki 1,1 %), Navoiy viloyati (100 ta yoki 1,4 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (116 ta yoki 1,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak, eng ko'p sanoatda 2947 tani (40,0 %), savdoda 1616 tani (21,9 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1216 tani (16,5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 96 tani (1,3 %), axborot va aloqada 197 tani (2,7 %), tashish va saqlashda 212 tani (2,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 318 tani (4,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 305 tani

(4,1 %) va qurilishda 464 tani (6,3 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 2129 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1334 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 391 ta, Turkiya Respublikasi – 329 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 302 ta, Qozog'iston Respublikasi – 222 ta, va Koreya Respublikasi – 153 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni (yanvar-noyabr holatiga), birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (652 ta), savdo (594 ta), qurilish (201 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (165 ta) va boshqa faoliyat turlari (517 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	391	174,6	49,2	652	166,8	30,6
Savdo	116	145,0	14,6	594	512,1	27,9
Qurilish	65	175,7	8,2	201	309,2	9,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	46	353,8	5,8	165	358,7	7,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	23	115,0	2,9	94	408,7	4,4
Axborot va aloqa	23	328,6	2,9	78	339,1	3,7
Tashish va saqlash	17	425,0	2,1	53	311,8	2,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	300,0	1,5	25	208,3	1,2
Boshqa turlari	102	141,7	12,8	267	261,8	12,5

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 dekabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 261,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 13,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 59,6 mingtasi (22,8 %) Toshkent shahri, 25,0 mingtasi (9,6 %) Toshkent, 23,1 mingtasi (8,8 %) Farg'ona hamda 22,6 mingtasi (8,6 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 261,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 69,9 mingtasi (26,8 %) – savdo, 55,8 mingtasi (21,4 %) - sanoat, 28,6 mingtasi (11,0 %) - qurilish, 23,8 mingtasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 19,5 mingtasi (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 13,0 mingtasi (5,0 %) - tashish va saqlash, 6,7 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 5,3 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 38,3 mingtasi (14,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-noyabr oylarida 45,3 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (10071 ta), Toshkent (4627 ta), Samarqand (3967 ta) va Farg'ona viloyatlari (3516 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (1284 ta), Xorazm (1853 ta) hamda Navoiy (1698 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (10729 ta), sanoatda (10431 ta), qurilishda (5911 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (5256 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1085 ta), axborot va aloqada (1153 ta) hamda tashish va saqlashda (1938 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 15973 tani tashkil etib, ulardan 15295 tasi yoki 95,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 32,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,4 % yoki 5718 tasi sanoat, 21,8 % yoki 3330 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,2 % yoki 2474 tasi savdo, 11,3 % yoki 1726 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 190 tasi qurilish, 1,2 % yoki 176 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 172 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 159 tasi axborot va aloqa hamda 8,8 % yoki 1350 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat va yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Statistik registrarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi
Tel.:71-230-80-90 (91)